

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

JAHON PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI

Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrası professori

Azimova Nasiba Ergashovna,

Xorijiy tillar fakulteti 2 kurs talabasi

Nasullayeva Zulayho

Annotatsiya. Jahon pedagogika fanining taraqqiyot bosqichlari, pedagogik qarashlar va ta'limotlar haqida tarixan o'rganar ekanmiz, qadimgi Yunoniston va Rim pedagoglarining yuqorida keltirgan g'oyalarini tilga olish o'rinlidir. Chunki, O'rta Osiyoda yashagan mutafakkirlar Hindiston, Xitoy kabi sharq mamlakatlari madaniyati, ilm-fani, tarbiyashunosligi bilan bir qatorda qadimgi Yunoniston, Rim madaniyati, falsafasi va pedagogikasiga ham e'tibor berganlar.

Kalit so'zlar: pedagogika, talim, axloq, tarbiya, Xomosapiens, pandnoma, Koxinlar, fir'avnlr , «gramatist va kifaristlar», «polistra» , Konfutsiylik.

Axloq va pedagogik qarashlar hamda ta'limotlar tarixiy jarayon bo'lib, kishilik jamiyatining vujudga kelishi bilan paydo bo'lib, shakllanib rivojlanib borgan. Tarbiya va axloqiy fikrlarning kelib chiqishi ibtidoiy jamiyat, uning yovvoyilik va vahshiylik davrlari tugab, tsivilizatsiya davri boshlanganida «Aqlli odam» (Xomosapiens) deb atalgan odamlar shakllangan davrda paydo bo'la boshlagan. Odamlar to'plagan turmush tajribasini yoshlarga o'rgatish, ularni g'ayotga, mehnat faoliyatiga tayyorlash ehtiyoji natijasida qadim zamonlardayoq ta'lim va tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo'lgan.

Tarbiya haqidagi pedagogik fikrlar, qarashlar va ta'limotlar qadimgi Sharq mamlakatlari – Xoldey, Vavilon (Bobil), Misr, Xindiston, Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlarida yuzaga kelgan. Shu boisdan eng qadimgi maktablar Sharq mamlakatlari, jumladan Xoldey, Vavilon, Misrda va Isroil shaharlarida ochilgan. Maktab ochishni misrliklardan greklar, greklardan rimliklar o'rganib olganlar. Qadimgi Misr o'zining tarbiyaviy-axloqiy pandnomalari (quldorlar hayotiga doir xilma-xil maslahatlar, do'stlar bilan, xizmatkorlar bilan muomala qoidalari va hokazo) bilan mashhur bo'lgan va ularni koxinlar (kelajak haqida «karomat qiluvchi» kishilar, ruxoniylar) yaratganlar. Ular axloqning ibtidosi samoda deb qaraganlar hamda odamning buyuk maqsadini xudo bilan qo'shib ketishda ko'rganlar, asosiy axloqiy majburiyatni fir'avnlr (Qadimgi Misr podsholarining

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

anʻanaviy nomi) ga xizmat qilish va xudolarga hurmat bilan qarash deb bilganlar. Koxinlar kishilardagi «odobsizlik», «tarbiyasizlik» xudolarni lozim darajada eʻzozlamaslikdan paydo boʻladi deb bilganlar. Demak, Qadimgi Misrda diniy va dunyoviy maʻnodagi axloqiy-tarbiyaviy taʻlimotlar paydo boʻlgan.

Eramizdan avvalgi II asrda qogʻoz ilk bor Xitoyda kashf etildi va ishlab chiqilgan. Keyinchalik VII asrda Samarqanda qogʻoz ishlab chiqarila boshlandi va Yevropa mamlakatlariga sotilgan. XVII asrda qogʻoz ishlab chiqish Yevropa mamlakatlariga ham yoyilgan. 1000 yildan buyon boʻlib kelayotgan qogʻoz bosish Rossiya Oʻrta Osiyoni bosib olgandan keyin toʻxtatilgan.

Sharq mamlakatlaridagi ilk tarbiya maktablarida xat-savod oʻrgatish murakkab, ogʻir ish hisoblangan. Ilm olish – nina bilan quduq qazish, deb bejiz aytilmagan. Shu boisdan mutafakkir olimlar oʻqitishning yengilroq usullarini topish ustida bosh qotirganlar. Bu davrlarda yozuv, oʻqish, hisob va din ilmlari yaratildi. Qadimgi Sharq mamlakatlarida maktablarda qattiq intizom oʻrnatilgan, bolalarga nisbatan jismoniy jazo qoʻllangan. Markaziy Osiyoda falsafiy, axloqiy, maʻrifiy tafakkurning ilk kurtaklari xalq ogʻzaki ijodida oʻz aksini topgan. Ularda yozuv paydo boʻlgunga qadar va undan keyin ham xalq ruhi va maʻnaviy faolligi aks etgan. Sharqda, jumladan Oʻzbekiston hududida taʻlim-tarbiyaga juda katta eʻtibor berilib, bolalarni kichik yoshdan ilmga qiziqtirish, axloqan pok, vijdonli, mehr oqibatli qilib voyaga yetkazish, el-yurtga nafi tegadigan farzand qilib oʻstirish masalalariga otabobolarimiz jiddiy eʻtibor qilishgan.

Sharq pedagoglari bolalarni oʻqishga qiziqtirish uchun kitobdagi voqealarni qush va hayvonlar tilidan hikoya qilar edilar. Masalan, «Qobusnoma», «Axloqi Muhsiniy», «Kalila va Dimna» kabi asarlar shular jumlasidandir. VII- VIII asrlarda Markaziy Osiyoni arablar bosib olgach, islom dini asosidagi sifat jihatidan yangi tizimga ega boʻlgan taʻlim-tarbiya muassasalari vujudga keldi. Arab tilini oʻrganish joriy etildi. Bu davrda Markaziy Osiyoda yoshlarga taʻlim-tarbiya berish uchun maktablar, machit va madrasalar tashkil qilindi. Bu usulda oʻqitish 1917 yil Oktyabr toʻntarilishidan keyin eski unsur sifatida qoralandi va yangi (jadid) usulidagi oʻqitish tizimi (maktablar) yuzaga keldi. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida taʻlim-tarbiya, pedagogik qarashlar va taʻlimotlar.

Eramizdan oldingi VI asrdan milodiy V asrgacha boʻlgan davrda Yunonistondagi quldorlik davlatlari va Rim imperiyasida bir qadar demokratik tartiblar, Respublika boshqaruvi oʻrnatildi. Bu davrda oʻziga xos taʻlim-tarbiya

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

tizimlari va mutafakkirlar tomonidan o'ziga xos pedagogik ta'limotlar yaratildi. Afinadagi quldorlar o'z bolalariga aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyalarni berganlar. Afinada bolalar 7 yoshgacha uyda tarbiyalangan. 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar «gramatist va kifaristlar» maktablarida ta'lim olganlar So'ngra 14-15 yoshli bolalar «polistra» (kurash) maktablarida taxsil olgan. 16-17 yoshli bolalar «Gimnaziya» da, 18-20 yoshli bolalar esa Efiliya maktablarida ta'lim-tarbiya olganlar.

Yunonistonlik olimlar Demokrit, suqrot, Aflotun, Arastu, shuningdek mashhur Rim pedagogi Kvintilianlar o'z asarlarida ta'lim-tarbiyaga doir pedagogik nazariyalar yaratdilar. Masalan, Demokrit tarbiyaning tabiatga mosligi g'oyasini o'rtaga qo'ygan. O'qitish jarayonida bolalarning qiziquvchanligini hisobga olish zarurligini o'qtirgan. Ta'limning kishi tabiatini o'zgartiruvchi qudratli kuch ekanligini, o'qitishda majburlash usulidan ko'ra, ishontirish usulidan foydalanish afzalligini ta'kidlagan edi. U tarbiyada mehnatning roli muhimligini ko'rsatib, pedagoglar, ota-onalar bolada yaxshi xulq hosil qilish uchun ularga foydali xatti-harakatlarni ko'proq mashq qildirishlari lozim, degan edi. Qadimgi mashhur grek olimi Suqrot (er. av. 469-309 yy) axloq-tarbiya soxasida maktab yaratib, u guyo xudo yaratgan umumiy fazilatlarni targ'ib etdi. Suqrot odamni fazilatga o'rgatishdan oldin, eng avvalo umumiy etika-tarbiya qonuniyatlarini, mezonlarini bilish zarur deydi. Uning fikricha, tarbiyadan ko'zlangan maqsad, narsalar tabiatini o'rganish bo'lmay, balki kishining bilim olish qobiliyatini, axloqini kamol toptirish bo'lmog'i lozim. Aflotun bola tarbiyachiga itoat qilishi zarurligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. U bolani muttasil nazorat qilib borish, uning yaxshi xulqi, itoatkorligini rag'batlantirish, itoatsizlik qilsa – qo'rqitish va urib bo'lsa ham to'g'ri yo'lga solish lozimligini ta'kidlaydi. O'qituvchi-tarbiyachi yoshlarga bilim berish, tarbiyalash maqsadida unga tizimli ta'sir ko'rsatadi. Arastuning «Iskandarga nasihat» asarida bayon etilgan pedagogik g'oyalar yoshlarni axloqiy tarbiyalash nuqtai nazardan hamon o'z qimmatini yo'qotmagan. Shuningdek, Arastuning «Afina siyosati» asarida tasvirlangan afinaliklarning o'qituvchilarni saylash taomili ham odobi xususida diqqatga sazovordir. Negaki, saylab qo'yish taomili o'qituvchi-tarbiyachilar zimmasiga katta majburiyatlar yuklagan. Bu taomil Afina davlatida pedagoglik ishining ommaviyligini, unga alohida e'tibor berilganini ko'rsatadi. Rim pedagoglaridan eng mashhuri – Mark Fabiy Kvintilian «Notiqni tarbiyalash to'g'risida» nomli asarida pedagogik fikrlarni, o'qitish soxasiga doir qarashlarni

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

bayon etadi. Uning fikricha, bola maktabda ta'lim-tarbiya olishi lozim. O'qituvchi o'zi tarbiyalayotgan har bir bolaga ehtiyotkorlik bilan muomala qilishi kerak. O'qituvchining o'zi o'qimishli bo'lishi, bolalarni sevishi, o'zini yaxshi tuta bilishi, bolalarni bo'lar-bo'lmasga maqtayvermasligi yoki jazolavermasligi darkor.

Qadimgi Xitoyda ta'lim-tarbiya. Konfutsiylik. Xitoy qadimdan sharqdagi yirik davlatlardan biri bo'lgan. Qadimgi Xitoyda pedagogik fikrlar, ta'limotlarning paydo bo'lishi eramizdan avvalgi 2 ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi va ular asosan konfutsiylik, daosizm, Yan Chju ta'limotlarida o'z ifodasini topgan. Bu davrda Xitoyda ilk tarbiya maktablari paydo bo'lib, ularda bolalar ieroglif (belgilar orqali) o'qitilgan. Xitoyda keng tarqalgan Konfutsiylik ta'limotining ahamiyati katta bo'ldi. Konfutsiy ta'limotiga muvofiq, odamlar o'z tabiatlariga ko'ra hammasi bir, faqat tarbiya tufayli ular bir-birlaridan farq qiladilar. Chunonchi, Konfutsiyning e'tirof etishicha, «Odamlar o'z tabiatiga ko'ra bir-birlariga yaqindirlar. Lekin o'zlarining xulq-atvorlari, odatlariga ko'ra bir-birlaridan yiroqdirlar». Konfutsiy – Xitoyning taniqli mutafakkiri. U eramizdan avvalgi 551 yilda kambag'al oilada tug'ildi. Konfutsiy umri davomida, asosan, o'qituvchilik bilan shug'ullanadi. Xitoyda Konfutsiy tuzgan maktab ko'p asrlar davom etdi. Miloddan avvalgi 136 yilda imperator U-Di hukmronlik qilgan davrda Konfutsiy qarashlari rasmiy ravishda ta'limot – tizim deb e'lon qilindi. Shundan keyin Konfutsiy ta'limoti ikki ming yildan ortiq vaqt maboynida hukmron g'oya sifatida davom etdi. Konfutsiyning inson to'g'risidagi fikr-mulohazalarini, shogirdlari bilan suhbatlarini aks ettiruvchi «Suhbatlar va mulohazalar» asarida ko'rishimiz mumkin. Jamiyatda sodir bo'layotgan turli axloqsizliklardan Konfutsiy qattiq tashvishga tushadi, fuqarolarni tarbiyalashga harakat qilib, ularni insof-diyonatga, bir-birlarini hurmat qilishga, atrof-muhit musaffoligini ta'minlashga chorlaydi. Uning tushuntirishicha, insoniylikning turli fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan chinakam inson faqat o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun, boshqalar uchun ham yashamog'i darkor. Insonning insoniyligi, eng avvalo, quyidagi talablarga javob bermog'i darkor. O'zbek xalq pedagogikasida qo'llanib kelingan tarbiya usullari yoshlarga o'zaro izzat-hurmatli bo'lish, qadr-qimmatli bo'lish, qadr-qimmatni anglash, samimiy, halol, haqiqatgo'y, mard, jasur, mehribonlik kabi insoniy fazilatlarini singdirishga xizmat qilgan. Bolani elga manzur, odobli farzand qilib tarbiyalash otanonaning burchi hisoblangan O'zbek xalqi yaratgan maqol, naql, afsona, rivoyat,

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

hikoyatlarda ma'naviy-axloqiy ideallar, qiziqarli o'gitlar shaklida bayon etilgan. «Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan», «Har kim ekanini o'radi», «Bola aziz, odobi undan aziz» kabi maqollar shular jumlasidandir. Bu kabi o'git va naqllarda xalqimizning tarbiya borasidagi boy merosi namunalari o'z ifodasini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Азимова Н. Э., Насимова З. И. Маънавий-маърифий ишлар жараёнида бўлажак касб таълими ўқитувчисини тарбиялаш методикаси //psixologiya Учредители: Бухарский государственный университет. – №. 3. – С. 129-134.
2. Azimova N. E. Problems of development of new pedagogical technologies of training of teachers of professional education and their introduction into the educational and educational process //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 1-3.
3. Azimova N. E. Formation of National and Ideological Education of Students is an Integral Part of the Learning Process. – 2021.
4. Azimova N. E. A financially independent higher education institution is the foundation of our future //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 130-134.
5. Azimova N. E. et al. Youth Is Moving Force of Civil Society //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.